

X.N. NABIEV, M.SH. AHMEDOVA

SANOAT STATISTIKASI

O‘quv qo‘llanma

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi
tomonidan oliy o‘quv yurtlarining “230000– Iqtisod” ta‘lim
sohasining va “5231400 – Statistika (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)”
ta‘lim yo‘nalishlarining talabalari uchun
darslik sifatida tavsiya etilgan*

TOSHKENT – IQTISODIYOT – 2020

KIRISH

«Sanoat statistikasi» «Statistika» fanining tarkibiy qismlaridan biridir. Bozor munosabatlari sharoitida u sanoat tarmog‘i (firma, korxonalar) darajasida voqea-hodisalarning miqdor va sifat jihatlarini bir-biridan ajratmagan holda o‘rganadi; ishlab chiqarish, boshqarish, sotish, tashqi iqtisodiy aloqalari mohiyati asosida firma ko‘rsatkichlar tizimi metodologiyasini, ularni jamlab, tarmoq darajasida ko‘rib chiqish, shuningdek, bu ko‘rsatkichlar orasidagi bog‘lanishlarni, ularni iqtisodiy statistik tahlil qilish yo‘llarini o‘rgatadi.

«Sanoat statistikasi» o‘z yo‘nalishidan kelib chiqib, talabalar uchun nazariy, uslubiy, tarbiyaviy va amaliy jihatdan muayyan vazifalar amalga oshirilishini ko‘zda tutadi.

Nazariy jihatdan:

- «Sanoat statistikasi» fanining predmeti, obyekti va usullari hamda uning boshqa fanlar bilan aloqadorligi haqida;
- sanoat tarmog‘i faoliyatini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlarni tuzish prinsiplari, ularning tarkibi va o‘zaro bog‘liqligi haqida;
- ko‘rsatkichlarni hisoblash metodologiyasi, firmalarda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, ularni ishlab chiqarish uchun qilingan xarajatlar va moliyaviy natijalar, ishlab chiqarish samaradorligi ko‘rsatkichlarini aniqlash yo‘llari haqida puxta bilim va malakaga ega bo‘lishlari lozim.

Uslubiy jihatdan: sanoat (korxonalar, firma) tarmog‘i faoliyatini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar tizimini aniqlash uslubiyati va ularning mohiyatini o‘rgatishdan iborat.

Tarbiyaviy jihatdan: iqtisodiy ta‘lim yo‘nalishlaridagi bakalavr, magistrlarda o‘z kasbiga mehr uyg‘otish, hujjatlar to‘g‘ri tayyorlanishiga mas‘ullik tuyg‘usini shakllantirish, vaqt omilining qadriga yetish ko‘nikmasini, o‘z malakasi va ilmini oshirishga intilishni kuchaytirishdir.

Amaliy jihatdan:

- sanoat tarmog‘i statistik ko‘rsatkichlar tizimini aniqlash va tahlil qilishga;
- bozor munosabatlari sharoitida firmalar, korxonalar, hissdorlik jamiyatlari iqtisodiyotini xar tomonlama tadqiq qilishga qodir bo‘lishi lozim.
- talabalar ma‘lumotlarni tadqiq qilish asosida hulosalar chiqarib, amaliy yechimlar topishga muvofiq bo‘lishlari lozim.